



## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


## Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar 2 805,1mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,5 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 214,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 65,3%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 591,0 mlrd. so'mni (5,2 % ga ko'paygan. shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 364,2 mlrd. so'mni (2,7% ga ko'paydi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2021-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 805,1** mlrd. so'm ni tashkil etib, o'sish surati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **0,5** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,4** % va yirik korxonalar hissasiga **7,6** % to'g'ri keldi.




### ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **46,1** % ulush bilan **1 292,9** mlrd. so'm ni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida **2,7** % ulush bilan **75,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, 2 591,0 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 5,2 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 92,4 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Uychi (98,6 %), Kosonsoy (98,4 %), Mingbuloq (98,3 %), Chortoq (96,7 %), Yangiqo`rg`on (96,4 %) va Namangan (96,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kypayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Yangiqo'rg'on (103,5 %) va To'raqo'rg'on (102,5 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	2 805,1	100,5	214,1	65,3	2 591,0	105,2
Namangan.sh	1 292,9	100,1	97,7	90,8	1 195,2	100,9
tumanlar:						
Mingbuloq	75,6	100,7	1,3	108,9	74,2	100,5
Kosonsoy	119,9	100,0	1,9	107,7	118,1	99,9
Namangan	121,5	101,1	4,6	118,9	116,8	100,5
Norin	109,7	101,9	12,7	109,8	96,9	100,9
Pop	155,2	100,1	11,9	84,3	143,3	101,7
To'raqo'rg'on	166,2	102,5	12,5	133,5	153,7	100,6
Uychi	135,0	100,0	1,8	7,7	133,2	120,2
Uchqo'rg'on	102,1	100,3	7,9	98,5	94,2	100,5
Chortoq	118,1	100,1	4,0	15,1	114,1	124,3
Chust	290,2	100,0	53,4	46,1	236,7	135,8
Yangiqo'rg'on	118,8	103,5	4,2	106,2	114,6	103,4

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 65,3 % ga kamaydi va **214,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 591,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **5,2 %** ga kupaygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (98,6 %), Kosonsoy (98,4 %), Mingbuloq (98,3 %) Chortoq (96,7 %), Yangiqo`rg`on (96,4%), Namangan (96,2%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (18,4 %), Norin (11,6 %) Uchqo`rg`on, Pop (7,7 %) tumanlarida va Namangan.sh (7,6 %) kuzatildi.





## NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yil yanvar-mart oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **976,3** ming so'm (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **1,5 %** ga kamaygan). Yangiqo'rg'on, To'raqo'rg'on (101,3 %), Namangan (100,5 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (1 999,9 ming so'm), Chust (1 075,9 ming so'm) va To'raqo'rg'on (727,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	976,3	98,5
Namangan.sh	1 999,9	97,1
tumanlar:		
Mingbuloq	587,6	98,6
Kosonsoy	562,3	97,9
Namangan	674,5	100,5
Norin	659,1	100,2
Pop	696,0	98,5
To'raqo'rg'on	727,5	101,3
Uychi	621,3	97,9
Uchqo'rg'on	583,6	98,5
Chortoq	583,2	98,3
Chust	1 075,9	98,4
Yangiqo'rg'on	534,4	101,3



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **44,9** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **1,0 %** ga ko‘paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **90,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	44,9	101,0	4,47	101,4	40,4	101,0
Namangan.sh	24,8	101,2	4,46	106,9	20,4	100,0
tumanlar:						
Mingbuloq	1,1	101,0	0,0	0,0	1,1	101,0
Kosonsoy	1,3	100,7	0,0	0,0	1,3	100,7
Namangan	2,3	99,3	0,0	0,0	2,3	103,1
Norin	1,2	102,8	0,0	0,0	1,2	102,8
Pop	2,7	101,7	0,0	0,0	2,7	101,7
To‘raqo‘rg‘on	2,1	103,2	0,0	0,0	2,1	103,2
Uychi	1,1	103,1	0,01	54,7	1,0	103,8
Uchqo‘rg‘on	2,1	100,5	0,0	0,0	2,1	100,5
Chortoq	1,5	103,0	0,0	0,0	1,5	103,0
Chust	3,9	97,0	0,0	0,0	3,9	100,4
Yangiqo‘rg‘on	0,9	106,0	0,0	0,0	0,9	106,0




## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **819,1** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **1,9 %** ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **190,9** mlrd. so'mni (**96,1%** ga kamaygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **628,1** mlrd. so'mni (**3,8 %** ga ko'paygan).


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Uchqo'rg'on (105,5 m), Pop (90,6 m.) Kosonsoy (86,7 m.), tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Uchqo'rg'on (280,1 %), Uychi(216,4 %), To'raqo'rg'on (146,1 %), viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	819,1	101,9	190,9	96,1	628,1	103,8
Namangan.sh	362,8	97,3	42,0	67,6	320,9	103,3
tumanlar:						
Mingbuloq	12,3	105,5	0,0	0,0	12,3	105,7
Kosonsoy	41,8	106,5	0,1	86,7m	41,7	106,3
Namangan	30,3	104,1	0,4	175,4	29,9	103,5
Norin	38,0	139,9	10,2	0,0	27,8	102,5
Pop	36,1	104,5	0,4	90,6m	35,7	103,5
To'raqo'rg'on	93,8	146,1	54,7	20,6m	39,1	104,0
Uychi	69,6	216,4	42,9	66,8m	26,6	103,5
Uchqo'rg'on	24,5	280,1	15,2	10 5,5m	9,3	108,1
Chortoq	49,5	130,5	14,1	38,2m	35,4	103,4
Chust	25,8	22,7	10,9	10,9	14,9	103,5
Yangiqo'rg'on	34,6	106,0	0,0	0,0	34,6	106,0

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, **628,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **3,8** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **76,7** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on (100,0 %), Norin va Kosonsoy, Mingbuloq (99,8 %), Pop (98,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Uchqo'rg'on (38,0 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi  
boshqarmasi  
Tel : (69)-211-72-00